



KONSTITUTSIYAVIY HUQUQLARNI BUZGAN ROBOT KIMGA JAVOB BERADI?

Texnologik vositalar mustaqil qarorlar qabul qila boshlaganda, konstitutsiyaviy huquqlarni kim himoya qiladi?

Jumaniyozov Suxrobjon Muxammadovich

*Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiya universiteti Xalqaro huquq fakulteti 1-kurs talabasi ORCID: 0009-0001-5405-654X
<mailto:jumaniyozovsukhrob33@gmail.com>
Tel: +998 (93) 218-50-06*

Annotatsiya: Zamoniaviy texnologiyalar, xususan, sun'iy intellekt va robototexnika sohalaridagi rivojlanish nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki murakkab huquqiy muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, sun'iy intellekt tizimlarining avtonom qarorlar qabul qilishi konstitutsiyaviy huquqlarning buzilish xavfini oshiradi. Ushbu maqolada robotlar tomonidan sodir etilgan konstitutsiyaviy huquqbuzarliklar uchun kim javobgar bo'lishi kerakligi, bu boradagi xalqaro tajriba, mavjud huquqiy bo'shliqlar va ularni bartaraf etish yo'llari yoritiladi. Maqolada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, xalqaro qonunchilik, algoritmik etik, kiberhuquq nazariyalari asosida tahliliy xulosalar va takliflar ilgari suriladi. Asosiy g'oya – texnologik taraqqiyot inson huquqlarini kuchaytirishi kerak, javobgarlik esa har doim inson zimmasida bo'ladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, konstitutsiyaviy huquqlar, robototexnika, javobgarlik, kiberhuquq, demokratik jamiyat.

КТО НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА РОБОТА, НАРУШИВШЕГО КОНСТИТУЦИОННЫЕ ПРАВА?

Аннотация: Современные технологии, в частности развитие искусственного интеллекта и робототехники, создают не только экономические преимущества, но и сложные правовые вызовы. Особенно рост автономности решений, принимаемых ИИ-системами, повышает риск нарушения конституционных прав человека. В данной статье рассматривается, кто должен нести ответственность за конституционные правонарушения, совершенные роботами, с учётом международного опыта,





существующих правовых пробелов и возможных механизмов их устранения. Научный анализ построен на основе Конституции Республики Узбекистан, международного законодательства, теории киберправа и алгоритмической этики. Основной вывод — технологический прогресс должен усиливать, а не ослаблять права человека, а ответственность за действия ИИ всегда должна лежать на человеке.

Ключевые слова: искусственный интеллект, конституционные права, робототехника, ответственность, киберправа, демократическое общество.

WHO IS LIABLE FOR A ROBOT THAT VIOLATES CONSTITUTIONAL RIGHTS?

Abstract: Modern technologies, particularly the rapid advancement of artificial intelligence and robotics, present not only economic benefits but also complex legal challenges. The growing autonomy of AI systems in decision-making significantly increases the risk of violating constitutional rights. This article explores the question of legal responsibility for constitutional violations committed by robots, drawing on international experience, identifying existing legal gaps, and proposing effective regulatory solutions. The analysis is grounded in the Constitution of the Republic of Uzbekistan, international legal frameworks, cyber law theories, and algorithmic ethics. The core argument emphasizes that technological progress must reinforce — not undermine — human rights, and that legal liability should always trace back to a human actor.

Keywords: artificial intelligence, constitutional rights, robotics, liability, cyber law, democratic society.

KIRISH

So‘nggi o‘n yillikda sun’iy intellekt (SI) va robototexnika texnologiyalari nafaqat sanoat, balki sog‘liqni saqlash, ta’lim, xavfsizlik, adliya kabi ko‘plab sohalarda jadal tatbiq etilmoqda. SI tomonidan qabul qilingan qarorlar real hayotdagi inson huquqlariga bevosita ta’sir qilishi, ba’zida esa ularni buzishi mumkin. Masalan, yuzni tanish texnologiyalari noto‘g‘ri shaxsni aniqlab, nohaq jazolanishga sabab bo‘lishi mumkin. Yoki tibbiyotda SI noto‘g‘ri tashxis qo‘yib, bemor hayotiga xavf tug‘diradi. Bunday holatlarda: kim javobgar? Degan fundamental savol tug‘iladi.





Ushbu maqolaning dolzarbligi shundaki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquqlari oliy qadriyat sifatida belgilangan (13-modda), biroq texnologiyalar bilan bog‘liq huquqiy munosabatlар bo‘yicha hali to‘laqonli normativ-huquqiy bazalar shakllanmagan. Shu bois, texnologik vositalar tomonidan yuzaga kelgan huquqbuzarliklarda javobgarlikni aniqlash dolzarb vazifaga aylangan.

II. SUN’IY INTELLEKTNING HUQUQIY MAQOMI

Sun’iy intellekt (SI) – bu dasturiy ta’minot va algoritmlarga asoslangan, ma’lumotlarni mustaqil qayta ishlay oladigan va o‘z faoliyatini o‘rganuvchi tizimdir. Zamonaviy huquqshunoslik SIga qanday maqom berish kerakligi masalasida turlicha yondashuvlarni ilgari surmoqda. Bu masala nafaqat texnik, balki chuqur huquqiy, falsafiy va axloqiy jihatlar bilan chambarchas bog‘liqdir.

2.1. Sun’iy intellekt – vosita yoki subyekt?

An’anaviy huquqiy doktrinada faqat odamlar (fizik shaxslar) va tashkilotlar (yuridik shaxslar) huquqiy subyekt hisoblanadi. SI esa bu tasnifga to‘g‘ridan-to‘g‘ri mos tushmaydi. Shu sababli, hozirda SI ko‘pincha “huquqiy vosita” sifatida talqin qilinmoqda. Bunda u inson tomonidan yaratilgan va nazorat qilinadigan obyekt deb qaraladi. Biroq avtonomlik darajasi oshgan sari, SIga subyektiv javobgarlik yoki alohida huquqiy maqom berish zarurati yuzaga kelmoqda.

Yevropa Ittifoqi Parlamentining 2017-yil 16-fevraldagи rezolyutsiyasida SIning aniq maqomini belgilash, ayrim ilg‘or robotlarga “elektron shaxs” maqomini berish g‘oyasi ilgari surilgan. Bu taklif robotlarni mustaqil harakat qiluvchi subyekt sifatida tan olishni nazarda tutgan. Biroq bu yondashuv ko‘plab tanqidiy qarashlarga sabab bo‘ldi va huquqiy-amaliy jihatdan joriy etilmadi.

2.2. Huquqiy subyektlilik tamoyillariga ko‘ra baholash

G. Teubner (2006) sun’iy intellektni huquqiy tizimda “quasi-agent” deb ataydi. Unga ko‘ra, SI ijtimoiy tizimlar ichida muayyan rollarni bajaradi, biroq subyektiv mas’uliyatni zimmasiga olish salohiyatiga ega emas. Ya’ni, SI harakati orqasida har doim insoniy niyat va texnik kod mavjud.

J. Bryson (2018) esa “patience is not a virtue” konsepsiysi orqali SIga huquqiy maqom berish xavfini ochib beradi: agar robotlarga huquqiy maqom berilsa, bu ularning yaratuvchilarini javobgarlikdan ozod qilishi mumkin. Shunday ekan, huquqiy javobgarlikni aynan odamlar, ya’ni dasturchi, foydalanuvchi yoki regulator zimmasida qoldirish zarur.

2.3. Sun’iy intellekt va mulk huquqi o‘rtasidagi bog‘liqlik

Ayrim yondashuvlarga ko‘ra, SI maxsus intellektual mulk obyektiga aylanishi mumkin. Misol uchun, SI tomonidan yozilgan asar, rasm, musiqaning muallifi kim – dasturchimi, foydalanuvchimi yoki SI o‘zi? AQSH va Buyuk Britaniyada bu borada





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATION G'ÖYALAR



SIga mualliflik huquqi berilmaydi – bu faqat insonga tegishli. Bu esa, SI huquqiy subyekt emasligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shunga ko‘ra, O‘zbekiston qonunchiligidagi ham SIga oid yaratilgan asarlar bo‘yicha huquqiy normalar ishlab chiqilishi, uni faqat vosita sifatida ko‘radigan mexanizm ishlab chiqilishi lozim.

2.4. *SIni tartibga solish bo‘yicha xalqaro yondashuvlar*

BMT, UNESCO, OECD kabi xalqaro tashkilotlar SIga nisbatan axloqiy va huquqiy normalarni ishlab chiqishga kirishgan. Xususan: UNESCO (2021) – “Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence” hujjatida SI etikasi, inson huquqlariga hurmat va shaffoflik tamoyillari asosiy o‘ringa qo‘yilgan. OECD – SI tizimlari xavfsiz, adolatli va ishonchli bo‘lishi kerak degan prinsiplarni ilgari surmoqda.

O‘zbekiston ham bu xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish yo‘lida SIning huquqiy maqomini aniq belgilab, tegishli normalarni ishlab chiqishi zarur.

III. KONSTITUTSIYAVIY HUQUQLARNING BUZILISHI HOLATLARI

Sun’iy intellekt (SI) tizimlari tomonidan inson huquqlari buzilishining kengayib borayotgani global xavotir uyg‘otmoqda. SI — bu inson aralashuviziz mustaqil qaror qabul qiluvchi tizim sifatida nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarga, balki siyosiy va huquqiy tizimlarga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, konstitutsiyaviy huquqlarning buzilishi bilan bog‘liq holatlar SI xavfsizligi, algoritmik adolat va inson sha’nining huquqiy kafolati kabi masalalarni kun tartibiga olib chiqmoqda.

3.1. *Shaxsiy hayot daxlsizligiga tahdid*

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27-moddasida har bir shaxsning shaxsiy va oilaviy sirlar daxlsizligi kafolatlanadi. Biroq yuzni tanish (facial recognition), video kuzatuv, geolokatsion kuzatuvlar va internetdagи shaxsiy ma’lumotlarni avtomatik yig‘ish vositalari bu huquqni buzishi mumkin.

Xalqaro misol: Xitoyda SI yordamida ommaviy kuzatuv tizimlari fuqarolarning harakatini doimiy nazorat ostida ushlab turadi. Bu esa faol konstitutsiyaviy huquq – harakat erkinligiga va passiv huquq – maxfiylikka tahdid tug‘diradi.

Tanqidiy nuqta: SI avtomatik tarzda inson haqidagi axborotlarni yig‘adi, tahlil qiladi va qarorlar qabul qiladi. Bu jarayon fuqarolarning roziligi va xabardorligi holda emas, avtomatik ravishda amalga oshadi.

3.2. *Noto‘g‘ri algoritmlar vaadolatsiz jazolash*





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Algoritmlarning noto‘g‘ri ishlashi oqibatida insonlar aybsiz bo‘lsada jazolanishi mumkin. Bu Konstitutsiyaning 26-moddasi – “hech kim aybdor deb topilmaguncha aybsiz hisoblanadi” degan prinsipga ziddir.

AQSH misoli: Sudlarda ishlatilgan COMPAS algoritmi qora tanli fuqarolarga nisbatan xavflilikni ortiqcha baholagan. Natijada ular uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etilgan. Bu esa insonning sud himoyasi, tenglik va adolat tamoyillariga zid holat bo‘lib, Konstitutsiyamizdagi sudga murojaat qilish huquqi (44-modda) mazmuniga zid keladi.

Tahliliy nuqta: SIga asoslangan algoritmlar odatda mashina o‘rganish (machine learning) orqali o‘z tajribasini o‘zi shakllantiradi. Biroq bu tajriba tarixiy noto‘g‘ri qarorlar asosida shakllanganda — algoritmik diskriminatsiya yuzaga keladi.

3.3. Axborot xavfsizligi va raqamli tahdidlar

Konstitutsiyaning 29-moddasida har kim fikrini erkin ifoda etish huquqiga ega. Biroq raqamli manipulyatsiya, yolg‘on ma’lumotlar tarqatish, SI orqali shaxslar nomidan soxta kontentlar yaratish bu huquqni zaiflashtiradi.

Deepfake texnologiyasi — SI orqali yaratilgan realga o‘xhash, ammo yolg‘on video yoki audio fayllar orqali shaxs sha’niga putur yetkazilishi mumkin. Bu esa Konstitutsiyadagi sha’n va qadr-qimmatni himoya qilish (30-modda) tamoyiliga ziddir.

3.4. Fuqarolik erkinliklariga SI tomonidan tahdid

SI vositalari orqali ommaviy axborotni filtrlash, senzura, ijtimoiy tarmoqlarda postlar avtomatik bloklanishi fuqarolarning fikr erkinligi, siyosiy ishtirop, tinch yig‘ilishlar o‘tkazish huquqlarini cheklaydi.

Haqiqiy holat: Ayrim davlatlarda ijtimoiy tarmoqlardagi postlar SI tomonidan aniqlanadi va avtomatik tarzda o‘chiriladi. Bunday senzuraviy mexanizmlar fuqarolarning siyosiy ishtiropini cheklaydi va Konstitutsiyaviy demokratiya tamoyillariga ziddir. Konstitutsiyaviy huquqlar SI tizimlari bilan to‘qnash kelganida insonning shaxsiy daxlsizligi, adolatli sud, axborot xavfsizligi va siyosiy erkinliklari zaiflashadi. Shuning uchun:

- SI asosidagi texnologiyalar Konstitutsiyaviy tamoyillar asosida baholanishi kerak;
- Har qanday algoritmik qaror ortida inson javobgarligi yotmog‘i lozim;
- Raqamli vositalar bilan bog‘liq harakatlar uchun yuridik mezonlar belgilanishi zarur.

IV. KIM JAVOBGAR BO‘LADI?

Sun’iy intellekt (SI) tomonidan sodir etilgan huquqbazarliklarda javobgarlik masalasi global darajada murakkab va bahsli sohaga aylangan. Aslida, SI





o‘z harakatini mustaqil ravishda bajarayotgandek ko‘rinsa-da, uning qarorlari oldindan dasturlangan algoritmlar, ma’lumotlar to‘plami (data sets), va foydalanuvchining ko‘rsatmalariga asoslanadi. Demak, SI o‘z-o‘zidan javobgarlik subyekti emas. Mas’uliyat har doim insonlar zimmasidadir. Quyida bu javobgarlik qaysi subyektlar o‘rtasida taqsimlanishi mumkinligi huquqiy-nazariy asosda tahlil qilinadi.

4.1. Dasturchi javobgarligi

Dasturchi – SI tizimining “miyasini” yaratuvchidir. Uning yozgan kodi algoritmning qanday ishlashini, qanday vaziyatda qanday qaror qabul qilishini belgilab beradi. Agar dasturda:

- algoritmik diskriminatsiya,
- noto‘g‘ri baholash mezonlari,
- xavfsizlikka oid xatoliklar mavjud bo‘lsa – bu dasturchining fuqarolik yoki ma’muriy javobgarligiga sabab bo‘ladi.

Nazariy asos: Dasturchilar “algoritmik etik” qoidalariga amal qilishi shart. Bryson (2018) ta’kidlaganidek, “sun’iy subyekt yaratish insonni mas’uliyatdan ozod qilmaydi”.

Xalqaro tajriba: AQSHda Tay chatbot holatida – noto‘g‘ri o‘rganish algoritmi sabab SI kamsituvchi nutqlar ishlab chiqargan. Bu holatda Microsoft kompaniyasi (dasturchilar guruhi) kechirim so‘ragan va chatbotni tizimdan olib tashlagan.

4.2. Foydalanuvchi javobgarligi

Foydalanuvchi SI vositasidan foydalanayotgan subyektdir. Agar u:

- SIni noqonuniy maqsadlarda (kuzatuv, xakerlik, diskriminatsiya, firibgarlik),
- nomaqbul joyda (boshqarilmagan axborot tizimi),
- yoki befarqlik bilan (minimal xavfsizlikni ta’milamasdan) ishlatsa — bu holatda foydalanuvchi bevosita javobgar hisoblanadi.

Konstitutsiyaviy asos: 23-modda — har bir shaxs qonunlarga rioya etishi shart. Foydalanuvchi sun’iy intellekt bilan ishlayotganda ham huquqiy majburiyatlarga ega.

Masalan: Deepfake texnologiyalarini ishlatib shaxs sha’nini bulg‘ash yoki yolg‘on video tarqatish — bu SI orqali sodir etilgan, ammo foydalanuvchi tomonidan tashkil qilingan jinoyatdir.

4.3. Tashkilot yoki davlatning institutsional javob

Agar SI tashkilot tomonidan joriy etilgan bo‘lsa (masalan, bank, ijtimoiy tarmoq, davlat agentligi), uning noto‘g‘ri ishlashi tashkilot zimmasidagi mas’uliyatdir. Bu:

- xavfsizlik protokollari yetarli emasligi,
- algoritmlarning shaffof emasligi,





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



- insoniy nazoratning yo‘qligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Huquqiy mexanizm: Xalqaro huquqda bunday hollarda “institutsional javobgarlik” ishlaydi. Bu shuni anglatadiki, tashkilot o‘z tizimida ishlatilgan texnologiyalarning oqibatlari uchun javobgarlikka tortiladi.

Misol: Facebook kompaniyasining algoritmlari ayrim siyosiy reklamalarda kamsituvchi tavsiyalar berganligi aniqlangach, kompaniya ustidan tekshiruvlar o‘tkazilgan va jarimlar belgilangan.

4.4. Javobgarlikning zanjirli modeli

Ilmiy adabiyotda “zanjirli javobgarlik” (chain of accountability) modeli keng qabul qilingan. Bu modelga ko‘ra, quyidagi subyektlar javobgarlik zanjirini tashkil etadi:

- Dasturchi — algoritm sifati va etikasi uchun,
- Tashkilot — texnologiyani tanlash, joriy etish va nazorat qilish uchun,
- Foydalanuvchi — foydalanish shakli va maqsadi uchun,
- Regulyator (davlat) — nazorat, qonunchilik va monitoring uchun.

Eslatma: SI texnologik vosita sifatida “o‘zi” javobgar emas. U ongli subyekt emas, shaxsiy irodasi, niyati yoki huquqiy anglash qobiliyatiga ega emas. Shunday ekan, javobgarlik SI ortida turgan insonlarga yuklatilishi kerak.

Sun’iy intellekt tomonidan sodir etilgan har qanday huquqbazarlikda muammo texnologiyada emas, balki uni yaratgan va ishlatgan insonlarda. Bu demokratik huquqiy davlatning asosiy prinsipiga – “Javobgarlik individualligi” prinsipiga mos keladi.

Shu sababli:

- Dasturchilar – etik dasturlash uchun,
- Foydalanuvchilar – qonuniy ishlatish uchun,
- Tashkilotlar – xavfsizlik va inson huquqlarini kafolatlash uchun,
- Davlat – tartibga solish va nazorat uchun javobgardir.

V. HUQUQIY BO‘SHLIQLAR VA ZARUR CHORALAR

Sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining huquqiy jihatdan tartibga solinmasligi jamiyatda yirik huquqiy bo‘shliqlarni yuzaga keltirmoqda. Bunday bo‘shliqlar nafaqat fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlariga tahdid tug‘diradi, balki davlatning demokratik boshqaruv tizimi va ijtimoiy adolat tamoyillariga ham ziddir. O‘zbekiston Respublikasida ushbu soha bo‘yicha alohida qonunchilik mavjud emas, mavjud huquqiy mexanizmlar esa SIning xususiyatlarini to‘liq qamrab olmaydi.

5.1. Huquqiy bo‘shliqlarning mohiyati

SI bilan bog‘liq huquqiy bo‘shliqlarni quyidagi shakllarda ifodalash mumkin:



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



- Normativ-huquqiy asoslarning yetishmasligi – O‘zbekiston qonunchiligidagi oid tushunchalar, mezonlar va javobgarlik shakllari aniqlanmagan.
- Javobgarlik taqsimotining noaniqligi – SI vositasi orqali sodir etilgan huquqbazarliklarda kim javobgar ekanligi to‘g‘risida aniq normativ tartib yo‘q.
- Sud amaliyotining yetarli darajada shakllanmaganligi – SI ishtirokidagi huquqiy nizolar bo‘yicha ilg‘or ichki amaliyotlar yo‘qligi.
- Algoritmikadolat va shaffoflikningtartibga solinmaganligi – SI qabul qilgan qarorlar asoslari, manba ma’lumotlari va ichki ishslash mexanizmlari fuqarolarga noma’lum bo‘lib qolmoqda.
- Ma’lumotlarni himoya qilish tizimining zaifligi – SI tomonidan qayta ishlanayotgan shaxsiy ma’lumotlarni saqlash, ruxsat va rozilik mexanizmlari mavjud emas.

5.2. Xalqaro standartlar bilan solishtirma tahlil

- Yevropa Ittifoqi: “AI Act” (2021-yil) loyihasi SI tizimlarini xavflilik darajasi bo‘yicha toifalarga ajratadi. Har bir toifaga qarab yondashuv: yuqori xavfli SI (masalan, yuzni aniqlash) qat’iy tartibga solinadi.
- OECD tamoyillari: SI “inson huquqlari, demokratiya va qonun ustuvorligiga mos tarzda” ishlab chiqilishi kerak.
- Singapur va Janubiy Koreya: etik SI markazlari tashkil etilgan, bu orqali algoritmlarning huquqiy va axloqiy mezonlarga muvofiqligi baholanadi.

Ushbu tajribalar O‘zbekistonda ham normativ-huquqiy asoslarni shakllantirishda foydali bo‘lishi mumkin.

5.3. O‘zbekiston uchun ziar qonunchilik tashabbuslari

O‘zbekistonda huquqiy bo‘shliqlarni bartaraf etish uchun quyidagi choralarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

1. Maxsus qonun qabul qilish: “Sun’iy intellekt to‘g‘risida” yoki “Raqamli xavfsizlik va algoritmikadolat to‘g‘risida” qonun loyihalarini ishlab chiqish.
2. Algoritmik shaffoflik standartlarini joriy qilish: Har bir SI tizimi fuqaroga qanday qaror chiqarilayotganini tushunadigan darajada ochiq bo‘lishi zarur.
3. Axborot xavfsizligi qonunchiligini takomillashtirish: Shaxsiy ma’lumotlarning yig‘ilishi, saqlanishi va ulardan foydalanish bo‘yicha qat’iy qoidalar belgilanishi kerak.
4. Javobgarlik zanjirini qonuniy belgilash: Dasturchi, foydalanuvchi, tashkilot va regulyatorlarning aniq javobgarligi qonunda aks ettirilishi lozim.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR




5. Sud-huquqiy mexanizmlarni kuchaytirish: SI bilan bog‘liq nizolarni ko‘rib chiqishga ixtisoslashgan sud yoki ekspertlar kengashi tashkil etilishi zarur.

5.4. Fuqarolik jamiyati va monitoringning o‘rnı

- Fuqarolik jamiyati institutlari SI ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirishi lozim.
- Ombudsman va inson huquqlari bo‘yicha institutlar SI faoliyatining konstitutsiyaviy normalarga muvofiqligini baholash vakolatiga ega bo‘lishi kerak.
- Jurnalistlar, blogerlar va OAV SI’ning ijtimoiy ta’siri haqida ochiq va mustaqil ma’lumot tarqatish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim.

Huquqiy bo‘sqliqlarni e’tiborsiz qoldirish nafaqat texnologik, balki demokratik xavfdir. Sun’iy intellektni huquqiy tartibga solish – konstitutsiyaviy huquqlarni real hayotda ta’minlash vositasidir. O‘zbekiston uchun bu nafaqat texnologik strategiya, balki huquqiy va axloqiy majburiyatdir.

Huquqiy bo‘sqliqlar va zarur choralar





VI. KONSTITUTSIYAVIY HUQUQLARNI KIM HIMOYA QILADI?

Texnologik taraqqiyotning, ayniqsa sun’iy intellekt (SI) kabi ilg‘or tizimlarning jadal rivojlanishi, davlatning fuqarolarga nisbatan konstitutsiyaviy majburiyatlarini qayta ko‘rib chiqishni talab qilmoqda. Konstitutsiyaviy huquqlar faqat qog‘ozda emas, balki real hayotda ham himoya qilinishi lozim. Shu bois texnologik xavflarga qarshi huquqiy, institutsional va fuqarolik darajasida kuchli muvozanatli himoya tizimi zarur.

6.1. Konstitutsiyaviy nazorat subyektlari: huquqiy va institutlar kesimida

Konstitutsiyaviy huquqlarni himoya qiluvchi mexanizmlar odatda quyidagi toifalarga bo‘linadi:

1. Sud hokimiyati

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44-moddasiga ko‘ra, har bir fuqaro o‘zining buzilgan huquqlari bo‘yicha sudga murojaat qilish huquqiga ega. Sud hokimiyati mustaqil bo‘lishi va SI bilan bog‘liq nizolarni hal etishda quyidagilarni ta’minlashi kerak:

- Algoritmik qarorlar ustidan apellyatsiya mexanizmi;
- Ochiqlik, dalilga asoslangan yondashuv va inson omilining hisobga olinishi;
- Texnik ekspertizani qo‘llash orqali haqiqatga erishish.

Xalqaro tajriba: Estoniya va Gollandiyada SI ishtirokidagi sud qarorlarini inson tomonidan ko‘rib chiqish talabi qat’iy belgilangan.

2. Inson huquqlari bo‘yicha vakil (Ombudsman)

Ombudsman fuqarolarning SI sabab yuzaga kelgan huquqbazarliklari bo‘yicha mustaqil monitoring olib boruvchi subyektdir. U quyidagilarni amalga oshiradi:

- Tizimli SI xatolarini aniqlash va hisobot tayyorlash;
- Davlat idoralariga taklif va tavsiyalar berish;
- OAV, fuqarolar va davlat o‘rtasida vositachilik qilish.

Asos: O‘zbekiston Respublikasining “Ombudsman to‘g‘risida”gi qonuni asosida u inson huquqlarini ta’minlash mexanizmi sifatida ishlaydi.

3. Fuqarolik jamiyatni institutlari

NNTlar, mustaqil axborot vositalari, jurnalistlar, blogerlar, huquqshunos olimlar – bular jamiyatda raqamli huquq buzilishlariga nisbatan tahliliy, tanqidiy va tushuntiruvchi munosabat bildiruvchi kuchlardir.

Vazifalari:

- Algoritmik adolatsizliklar haqida jamoatchilikni xabardor qilish;
- SI faoliyatini ochiqlikka undash;
- Normativ-huquqiy hujjalarni ishlab chiqilishida jamoatchilik fikrini shakllantirish.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Xalqaro tajriba: Mozilla Foundation, AlgorithmWatch (Germaniya), AccessNow kabi tashkilotlar SI ustidan jamoaviy monitoring olib boradi.

4. Davlat regulyatorlari

Axborot texnologiyalari va kiberxavfsizlikni tartibga soluvchi davlat organlari, masalan, O‘zbekiston Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalarni rivojlantirish vazirligi, Digital Technologies Agency kabilar, SI vositalarining jamiyatdagi roli va xavfsizligiga mas’ul.

Ularning funksiyalari:

- Texnologiyalarni sertifikatlash va lisenziyalash;
- Axborot xavfsizligi standartlarini joriy etish;
- Raqamli texnologiyalar ustidan nazorat va huquqiy tahlilni amalga oshirish.

6.2. Ko‘p darajali himoya modeli: nazariy asos

Inson huquqlarini texnologik muhitda himoya qilishda “checks and balances” tamoyili muhim. Ya’ni, bir institut ustidan boshqasining nazorati mavjud bo‘lishi lozim. Masalan:

- Sud – davlat va texnologiya kompaniyasi qarorlarini bekor qilishi mumkin;
- Ombudsman – fuqarolarning e’tirozlarini omma oldida ko‘tarishi mumkin;
- Jamoatchilik – parlamentga bosim o’tkazib, qonunchilik tashabbuslarini ilgari suradi;
- Davlat – regulyator sifatida tizim xavfsizligini kafolatlaydi.

Bu ko‘p qatlamlı yondashuv huquqiy pluralizm deb ataladi va demokratik davlatlarda keng qo’llaniladi.

6.3. Texnologik sharoitda huquqlarni himoya qilishda yuzaga keladigan muammolar

- *Texnik savodsizlik*: Sudlar va regulyatorlar SI’ning murakkabligini tushunmasligi natijasida noto‘g‘ri baho berish xavfi mavjud.
- *Normativ kechikish*: Texnologik o‘zgarish tez, lekin qonunchilik jarayoni sekin. Algoritmik “qora quti” effekti: SI qarorlarining mantiqiy yo‘li ko‘rinmaydi – bu esa sud muhokamasini qiyinlashtiradi.

Konstitutsiyaviy huquqlarni himoya qilish – bu faqat sndlarning vazifasi emas, balki kompleks, ko‘p darajali tizim faoliyatining mahsulidir. Sun’iy intellekt davrida bu tizim:

- mustaqil bo‘lishi,
- haffof ishlashi,
- texnologik bilimlarga ega bo‘lishi,





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



- va eng muhimi – inson huquqlarini har qanday algoritmik qarordan ustun qo‘yishi shart.

VII. XULOSA VA KELAJAKDAGI VAZIFALAR

Texnologik taraqqiyot demokratik jamiyatda inson huquqlariga xizmat qilishi shart. SI vositalari insoniyatning yutuqlari sifatida qaralsa-da, ular nazoratsiz qolsa, konstitutsiyaviy huquqlarga jiddiy tahdid tug‘diradi.

Asosiy xulosalar:

- SI mustaqil huquqiy subyekt emas – javobgarlikni inson zimmasiga yuklash lozim.
- Har bir texnologik vosita ortida turuvchi inson, tashkilot, davlat yoki ishlab chiqaruvchi javobgar bo‘lishi kerak.
- O‘zbekiston huquqiy tizimida SIga oid maxsus qonunchilikni ishlab chiqish zarur.
- Huquqiy bo‘shliqlar fuqarolarning huquqlariga tahdid soladi – buni bartaraf etish demokratik jamiyatning asosiy vazifasidir.
- Ombudsman, sud, OAV va fuqarolik jamiyati SI ustidan muntazam nazoratni amalga oshirishi kerak.

Kelajakdagi tadqiqot yo‘nalishlari:

- SIning sud tizimiga integratsiyasi va huquqiy baholash tamoyillari.
- Algoritmik adolat va algoritm qarorlarining shaffofligi.
- Raqamli etik va sun’iy ong konsepsiylarining huquqiy ko‘rinishi.

Foydalanimgan adabiyotlar va rasmiy havolalar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023-yilgi tahrir): [htt
https://lex.uz/docs/-20596](https://lex.uz/docs/-20596)

2. O‘zbekiston Respublikasi “Ombudsman to‘g‘risida”gi Qonuni:
<https://lex.uz/docs/3322149>

3. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi: <https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights>

4. Teubner, G. (2006). Rights of Non-humans? Electronic Agents and Animals as New Actors in Politics and Law:
<https://www.researchgate.net/publication/228205003>

5. Lessig, L. (1999). Code and Other Laws of Cyberspace. Basic Books:
<https://code-is-law.org>

6. Cerf, V. (2015). The Ethics of Artificial Intelligence. Nature, 521:
<https://www.nature.com/articles/521415a>





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



7. Bryson, J. J. (2018). Patience is not a virtue: The design of intelligent systems and systems of ethics: <https://link.springer.com/article/10.1007/s10676-018-9448-6>
8. Mittelstadt, B. D. et al. (2016). The ethics of algorithms: Mapping the debate: <https://journals.sagepub.com/doi/full/10.1177/2053951716679679>
9. European Parliament (2017). Civil Law Rules on Robotics: https://www.europarl.europa.eu/doceo/document/TA-8-2017-0051_EN.html
10. UNESCO (2021). Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence: <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000381137>
11. OECD Principles on Artificial Intelligence: <https://oecd.ai/en/ai-principles>
12. AlgorithmWatch – SI ustidan fuqarolik monitoringi: <https://algorithmwatch.org/en/>
13. AccessNow – Texnologiya va inson huquqlari tashkiloti: <https://www.accessnow.org/>
14. COMPAS Bias Report(ProPublica) : <https://www.propublica.org/article/machine-bias-risk-assessments-in-criminal-sentencing>
15. Deepfake Human Rights Report – AccessNow: <https://www.accessnow.org/deepfakes-and-human-rights/> AI Act – European Commission: <https://artificialintelligenceact.eu/>
16. AlgorithmWatch – Monitoring AI Use: <https://algorithmwatch.org/en/>
17. AccessNow – Tech & Human Rights: <https://www.accessnow.org/>
18. Estonia e-Governance Report: <https://e-estonia.com/solutions/e-governance/>
19. Mozilla Foundation – AI Transparency: <https://foundation.mozilla.org/en/what-we-fund/ai-transparency/>
20. Future of Life Institute – AI Policy: <https://futureoflife.org/ai-policy/>
21. Stanford HAI – AI & Law Publications: <https://hai.stanford.edu/research/publications>
22. Brookings Institution – AI Governance: <https://www.brookings.edu/topic/artificial-intelligence/>
23. Oxford Internet Institute – Ethics of AI: <https://www.oi.ox.ac.uk/research/projects/ai-ethics/>

